

## GOLLANDIYA, GERMANIYA VA DANIYA SELEKSIYASIDAGI GOLSHTIN SIGIRLARI SUT MAHSULDORLIGINI KONSTITUTSIYA TIPIGA BOG'LIQLIGI

**Mirsaidova Zuxra Shuxrat qizi**  
*q.x.f.f.d, dotsent: Tayanch doktorant*  
**Xujamov Jurabek Nayimovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada respublikamizning o‘ziga xos iqlim-sharoitiga ega bo‘lgan Samarqand viloyati sharoitida urchitilib kelinayotgan Gollandiya, Germaniya va Daniya seleksiyasiga mansub golshtin qoramollarning nozik-zich, mustahkam konstitutsiya tiplari bo‘yicha sut mahsuldorligi taqqoslab o‘rganildi va olingan ma’lumotlar berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Zot, irsiyat, seleksiya, konstitutsiya, nozik-zich, mustahkam, sut mahsuldorligi, laktatsiya, laktatsiya egri chizig‘i, sutdorlik koefisienti.*

**Kirish.** Respublikamizda rayonlashtirilgan muhim qoramol zotlaridan biri sut yo‘nalishidagi golshtin zoti hisoblanadi. Aholini chorvachilik mahsulotlariga (sut, go‘sht) bo‘lgan ehtiyojini qondirishda qoramolchilik tarmog‘i asosiy o‘rinni egallaydi. Shu boisdan golshtin zotining hozirgi kunda turli xil seleksiyaga mansub guruhlari mavjud.

Golshtin zotli qoramollarning tashqi tuzilishi fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, har xil konstitutsiyali sigirlar o‘ziga xos gavda tuzilishiga va har xil tempiramentiga ega bo‘ladi. Bu javob reaksiyasi bo‘lib, sigirlarning gavda tuzilish va skleti pishiqligiga, chidamliligiga, sharoitga moslashuvchanligiga, hamda mahsulot berish qobiliyatiga qarab baholanadi. Shuning uchun sigirlarning sut mahsuldorligini konstitutsiya tipiga bog‘lab o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Materiallar va metodlar.** Ilmiy tadqiqotlarimizning tajriba qismi Samarqand viloyati Tayloq tumanida joylashgan “Siyob Shavkat Orzu” sut qoramolchiligidagi ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi miqyosida o‘tkazildi. Tajriba uchun uch ta guruh birinchi guruh Gollandiya seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlar, ikkinchi guruh Germaniya seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlar, uchinchi guruhga, Daniya seleksiyasiga mansub golshtin zotli sigirlar olingan bo‘lib, uchta guruhning ham konstitutsiya tiplaridan nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplari n=10 bosh tajriba sigirlarida o‘rganildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Tajriba tahlillari xo‘jalik miqyosida shuni ko‘rsatdiki, sigirlar mahsuldorligiga bog‘liq holda sog‘in davrining kechish xususiyatlarini va bu davrda ular sut mahsuldorligining o‘zgarishini baholash maqsadida biz tadqiqotlarimiz davomida sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini laktatsiya oylari bo‘yicha o‘zgarishini o‘rgandik va tajriba natijalarini 1-jadvalda keltirdik.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, tana tuzilishi va mahsuldarlik yo'nalishidan qat'iy nazar, barcha guruhlarda sigirlarda eng yuqori oylik sog`im laktatsiyaning uchinchi oyida kuzatildi. Jumladan, I guruhdagi nozik-zich konstitutsiya tipidagi sigirlarning uchinchi oyidagi eng yuqori sut miqdori laktatsiya davomidagi sut miqdorining 11,9% ni, II guruhda bu ko'rsatkich 11,4% ni va III guruhda 12,9% ni tashkil etdi.

Xuddi shunday ko'rsatkichlarni guruhlarda seleksiyalararo mustahkam konstitutsiya tipidagi golshtin zotli sigirlarda quyidagicha I guruhda uchinchi oyidagi eng yuqori sut miqdori laktatsiya davomidagi sut miqdorining 12,2% ni, II guruhda bu ko'rsatkich 11,5% ni va III guruhda 12,1% ni tashkil etdi.

Sutdorlik koeffisienti esa quyidagicha har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut I guruhdagi nozik-zich konstitutsiya tipida 1208,23 kg bo`lib, II guruhdan 151,55 kg yoki 12,54% ni III guruhdan 148,45 kg yoki 12,28% ko`p sut bergen.

Bu ko'rsatkich bilan I guruhdagi mustahkam konstitutsiya tipida har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut miqdori 1300,1 kgni tashkil etib, II guruhdan 93,5 kg yoki 7,2%, III guruhdan 157,3 kg yoki 12,1% ga yuqori bo`lgan.

#### **Tajriba guruhidagi sigirlarning II-laktatsiya davrining oylik sut miqdori, sut miqdorining pasayish indeksi va kechish xususiyatlari. (n=10)**


| II- Laktatsiya oylari | Guruhsalar   |  |                                    |        |                 |  |                                    |                 |  |                                    |
|-----------------------|--|--|------------------------------------|--------|-----------------|--|------------------------------------|-----------------|--|------------------------------------|
|                       | I-Gollandiya seleksiyasiga masub golshtin zotli sigirlar |  |                                    |        |                 | II-Germaniya seleksiyasiga masub golshtin zotli sigirlar |                                    |                 |  |                                    |
|                       | nozik-zich   |  | mustahkam                          |        |                 | nozik-zich   |                                    |                 |  |                                    |
|                       | Sut miqdori, kg  | sog`in davrining doimiylik koeffitsienti | Sut miqdorining pasayish indeksi % |        | Sut miqdori, kg | sog`in davrining doimiylik koeffitsienti                 | Sut miqdorining pasayish indeksi % | Sut miqdori, kg | sog`in davrining doimiylik koeffitsienti | Sut miqdorining pasayish indeksi % |
| I                     | 738,9  | 100                                      | 71,4                               | 863,2  | 100             | 74,6   | 659,6                              | 100             | 78,1                                     |                                    |
| II                    | 982,2  | 134,5                                    | 94,9                               | 1071,9 | 124,2           | 92,6   | 807,8                              | 122,5           | 95,6                                     |                                    |
| III                   | 1034,4   | 105,3                                    | -                                  | 1157,2 | 107,9           | -  | 844,9                              | 104,6           | -  |                                    |
| IV                    | 999,6  | 96,6                                     | 96,6                               | 1081,3 | 93,4            | 93,4   | 822,7                              | 97,4            | 97,4                                     |                                    |
| V                     | 956,2  | 95,6                                     | 92,4                               | 1014,9 | 93,8            | 87,7   | 793,0                              | 96,4            | 93,8                                     |                                    |
| VI                    | 904,0  | 94,5                                     | 87,4                               | 967,5  | 95,3            | 83,6   | 763,4                              | 96,3            | 90,3                                     |                                    |
| VII                   | 869,2  | 96,1                                     | 84,0                               | 920,1  | 95,1            | 79,5   | 748,5                              | 98,0            | 88,6                                     |                                    |
| VIII                  | 817,1  | 94,0                                     | 78,9                               | 872,7  | 94,8            | 75,4   | 711,5                              | 95,0            | 84,2                                     |                                    |

|                                      |               |              |      |               |                   |      |               |              |      |
|--------------------------------------|---------------|--------------|------|---------------|-------------------|------|---------------|--------------|------|
| <b>IX</b>                            | 730,2         | -            | 70,6 | 806,3         | -                 | 69,7 | 652,2         | -            | 77,2 |
| <b>X</b>                             | 660,6         | -            | 63,9 | 730,4         | -                 | 93,1 | 607,7         | -            | 71,9 |
| <b>sog'in<br/>bo'yicha<br/>davri</b> | <b>8692,4</b> | <b>102,1</b> | -    | <b>9485,5</b> | <b>100,<br/>6</b> | -    | <b>7411,3</b> | <b>101,3</b> | -    |

Tajriba guruhidagi sigirlarning II-laktatsiya davrining oylik sut miqdori, sut miqdorining pasayish indeksi va kechish xususiyatlari. (n=10)

| II- Laktatsiya oylari | Guruhsalar   |   |                                    |  |   |                                    |                 |   |                                    |
|-----------------------|--|---|------------------------------------|--|---|------------------------------------|-----------------|---|------------------------------------|
|                       | II-Germaniya seleksiyasiga masub golshtin zotli sigirlar |   |                                    | III-Daniya seleksiyasiga masub golshtin zotli sigirlar |   |                                    |                 |   |                                    |
|                       | mustahkam  |   |                                    | nozik-zich   |   |                                    | mustahkam       |   |                                    |
|                       | Sut miqdori, kg  | sog'in davrining doimiylik koefitsienti | Sut miqdorining pasayish indeksi % | Sut miqdori, kg  | sog'in davrining doimiylik koefitsienti | Sut miqdorining pasayish indeksi % | Sut miqdori, kg | sog'in davrining doimiylik koefitsienti | Sut miqdorining pasayish indeksi % |
| I                     | 748,2  | 100                                     | 75,6                               | 510,3  | 100                                     | 55,0                               | 624,0           | 100                                     | 62,5                               |
| II                    | 911,7  | 120,4                                   | 92,2                               | 776,24   | 152,1                                   | 83,7                               | 876,8           | 140,5                                   | 88,1                               |
| III                   | 989,1  | 108,5                                   | -                                  | 927,2  | 119,4                                   | -                                  | 995,3           | 113,5                                   | -                                  |
| IV                    | 963,3  | 97,4                                    | 97,4                               | 905,6  | 97,7                                    | 97,7                               | 955,8           | 96,0                                    | 96,0                               |
| V                     | 920,3  | 95,5                                    | 93,0                               | 869,7  | 96,0                                    | 93,8                               | 892,6           | 93,4                                    | 89,7                               |
| VI                    | 885,9  | 96,2                                    | 89,6                               | 797,8  | 91,7                                    | 86,0                               | 837,3           | 93,8                                    | 84,1                               |
| VII                   | 868,7  | 98,0                                    | 87,8                               | 733,1  | 91,9                                    | 79,1                               | 797,8           | 95,3                                    | 80,1                               |
| VIII                  | 834,3  | 96,0                                    | 84,3                               | 654,0  | 89,2                                    | 70,5                               | 726,7           | 91,9                                    | 73,0                               |

|                                      |               |              |      |               |              |          |                    |                   |      |
|--------------------------------------|---------------|--------------|------|---------------|--------------|----------|--------------------|-------------------|------|
| <b>IX</b>                            | 765,5         | -            | 77,4 | 560,6         | -            | 60,<br>4 | 639,8              | -                 | 64,3 |
| <b>X</b>                             | 713,9         | -            | 72,2 | 452,8         | -            | 48,<br>8 | 545,1              | -                 | 54,8 |
| <b>sog‘in<br/>davri<br/>bo‘yicha</b> | <b>8600,9</b> | <b>101,5</b> | -    | <b>7187,4</b> | <b>104,6</b> | -        | <b>7891,<br/>2</b> | <b>103,<br/>0</b> | -    |



### 1-rasm. Sigirlar laktatsiyasining egri chizig‘i oylar bo‘yicha o‘zgarishi

**Xulosa:** sersut qoramollarda mustahkam va nozik, qo‘shmahsuldor qoramollarda zich va dag‘al konstitutsiya belgilari; go‘sht yo‘nalishidagi qoramollarda bo‘s sh va nozik konstitutsiya belgilari birgalikda uchrashi mumkin.

Sigirlarning sut mahsuldorlik darajasi birinchi tug‘ishidagi yoshiga, servis-davri davomiyligiga va yelin shakllariga bog‘liq. Bu omillarni hisobga olgan holda podada tanlash, saralash hamda naslchilik va seleksiya ishlarida ana shu konstitutsiya tipi keng miqiyosida qo‘llanilib olib borish tavsiya etiladi. Shunday qilib, sigirlarning II laktatsiyalardagi sut mahsuldorligi darajasi ularning birinchi tug‘ishidagi yoshiga uzviy bog‘liqdir. II laktatsiyada eng yuqori sut mahsuldorligi mustahkam konstitutsiya tipidagi Gollandiya seleksiyasiga masub golshtin zotli sigirlarda kuzatildi.

Chorva mollarini baholashda, tanlash va saralashda hamda naslchilik va seleksiya ishlarida ana shu konstitutsiya tipi keng miqiyosida qo‘llash tavsiya etiladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov B. Turli konstitutsiya tipidagi sigirlar laktatsiyasining kechish xususiyatlari. //Zooveternariya. Toshkent. 2012. №5-6. 32-34- betlar.

2. Nosirov U.N., Do'smuxamedova M.X. O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari. Toshkent. 2011. 198 b.
3. Narbaeva M.K., Kaxarov A.K., Sharapov R.Sh. Golshtin va golshtinlashtirilgan qora-ola zotli sigirlarning sut mahsuldorligi. //Zooveterinariya Toshkent, 2011. №11-12. 49-50b.
4. Xujamov J.N. Turli zot va zotdorlikdagi sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish yo'llari. q.x.f. nomzodi diss. ishini avtoref. Samarqand. 2019 .39 s.